



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAHTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC.....	108
Musaeva Shoirazimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	116
Yuldashev Abdusaxim Abdusaximovich	



YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Yuldashev Abduxakim Abdukarimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Biznes boshqaruvi kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
E-mail: abduxakimyuldashev@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada yog'-moy korxonalarining ta'minot zanjirini takomillashtirishda SCOR (Supply Chain Operations Reference) modelidan foydalanishning nazariy va amaliy afzalliklari yoritilgan. Tadqiqotda yog'-moy tarmog'ining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni, xomashyo bazasining cheklanganligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish muammolari hamda logistika jarayonlarini samarali tashkil etish zarurati tahlil qilingan. SCOR modelining rejalashtirish, ta'minlash, ishlab chiqarish, yetkazib berish va qaytarish bosqichlari yog'-moy korxonalarini faoliyati bilan bog'liq holda ko'rib chiqilib, ushbu model orqali zaxiralarni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish, buyurtmalarni o'z vaqtida bajarish va mijozlar qoniqishini ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan. Maqolada keltirilgan tahlillar SCOR modelini joriy etish yog'-moy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini tizimli boshqarish hamda resurslardan samarali foydalanishda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yog'-moy korxonalarini, ta'minot zanjiri, SCOR modeli, logistika, xomashyo zaxiralari, ishlab chiqarish quvvati, samaradorlik, xarajatlarni optimallashtirish, ta'minot zanjirini boshqarish.

Abstract. This article examines the theoretical and practical advantages of applying the SCOR (Supply Chain Operations Reference) model to improve the supply chain of oil and fat enterprises. The study focuses on the role of oil and fat enterprises in ensuring food security, the limitations of the raw material base, the incomplete utilization of production capacities, and the need to organize logistics processes more effectively. The main stages of the SCOR model, including planning, sourcing, manufacturing, delivery, and return, are analyzed in relation to the operational activities of oil and fat enterprises. The article substantiates that the implementation of this model can contribute to inventory optimization, reduction of logistics and operating costs, improvement of product quality, timely order fulfillment, and increased customer satisfaction. The research findings indicate that the SCOR model is an important tool for enhancing the competitiveness of oil and fat enterprises, ensuring systematic business process management, and improving the efficient use of production resources.

Keywords: oil and fat enterprises, supply chain, SCOR model, logistics, raw material inventories, production capacity, efficiency, cost optimization, supply chain management.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические преимущества применения модели SCOR (Supply Chain Operations Reference) в совершенствовании цепи поставок предприятий масложировой промышленности. Особое внимание уделено роли масложировых предприятий в обеспечении продовольственной безопасности, проблемам ограниченности сырьевой базы, неполного использования производственных мощностей и необходимости эффективной организации логистических процессов. В статье проанализированы основные этапы модели SCOR, включая планирование, снабжение, производство, доставку и возврат, а также показана их значимость для управления деятельностью масложировых предприятий. Обосновано, что внедрение данной модели способствует оптимизации запасов, снижению логистических и операционных затрат, повышению качества продукции, своевременному выполнению заказов и росту удовлетворенности потребителей. Результаты исследования показывают, что использование модели SCOR может стать важным инструментом повышения конкурентоспособности масложировых предприятий, системного управления бизнес-процессами и эффективного использования производственных ресурсов.

Ключевые слова: масложировые предприятия, цепь поставок, модель SCOR, логистика, сырьевые запасы, производственная мощность, эффективность, оптимизация затрат, управление цепями поставок.



KIRISH

Yog'-moy korxonalari mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Yog'-moy korxonalari nafaqat yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqaradi, balki boshqa tarmoqlar bilan ham uzviy bog'liq. Xususan, go'sht ishlab chiqaruvchi va parrandachilik korxonalarini ozuqa-yem bilan, qandolat ishlab chiqaruvchilarni salomas yog'i, parfyumeriya ishlab chiqaruvchi korxonalarini xomashyo bilan ta'minlaydi. Yog'-moy korxonalarini rivojlantirish orqali yuqorida keltirilgan tarmoqlarning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

Xomashyo bazasining cheklanganligi, muqobil moyli ekinlardan yetarlicha foydalanmaslik yog'-moy korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq ishga solishni ta'minlash va bozorning sifatli yog'-moy mahsulotlariga bo'lgan talabini qanoatlantirish imkonini bermaydi.

Mazkur masala yuzasidan qabul qilingan rasmiy hujjatlarda yog'-moy tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish va sohada bozor mexanizmlarini keng joriy etish zarurligi qayd etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yog'-moy korxonalarining ta'minot zanjirini takomillashtirishda SCOR modelidan foydalanish mavzusida jahon va mahalliy olimlar ko'plab tadqiqotlar olib borishgan. Ulardan korxonalarining ta'minot zanjirini samarali boshqarish bo'yicha bir qancha olimlar o'z ilmiy izlanishlarida quyidagi xulosalarga kelganlar: P. P. Krilatkov, M. A. Priluskayalar¹ "ta'minot zanjiri — bu mahsulotlarning, xizmatlarning tashqi va ichki oqimlarida bevosita ishtirok etadigan uch yoki undan ortiq iqtisodiy birliklar, tashkilotlar yoki shaxslar, moliya yoki manbadan iste'molchiga ma'lumotdir", deya ta'rif keltirgan. A. N. Trifuntov va V. I. Margunovalar² "ta'minot zanjiri — bu birlamchi xomashyoni birgalikda qayta ishlaydigan va undan yakuniy foydalanuvchi tomonidan baholanadigan tayyor mahsulotni oladigan sherik tashkilotlar tarmog'i. Bu boshlang'ich darajadagi yetkazib beruvchilardan oxirgi foydalanuvchiga materiallarni ko'chirish jarayonida ishtirok etadigan bir qator tashkiliy tadbirlardan iborat", degan ta'rif keltirgan [2]. Ispaniyalik olim M. Mau³ o'z tadqiqotida "ish samaradorligini oshirish, xarajatlarni pasaytirish va sifat konteksti ta'minot zanjirini optimallashtirishga olib kelishi" haqida keltirgan. Bizning fikrimizcha, yog'-moy korxonalarida to'g'ri tashkil etilgan ta'minot zanjiri yog'-moy mahsulotlarining narxi va sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Chunki sifatli va arzon ta'minot natijasida korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning narxi arzon va sifati yuqori bo'ladi.

Mahalliy olimlardan Raximov T. A., Xodjayev Sh. Sh.⁴ "SCOR modeli O'zbekistondagi korxonalarda zaxiralarni optimallashtirish va logistik xarajatlarni kamaytirish uchun qo'llanishi mumkin", deb ta'kidlab o'tgan. Bundan tashqari, mahalliy olim N. M. Abdullayev⁵ "Agrosanoat majmuasidagi zamonaviy usullar" nomli maqolada "O'zbekistonda qishloq xo'jaligida SCOR modelining joriy etilishi mehnat unumdorligini 20–30 foizga oshirishi mumkin", deb qayd etgan.

Bizning fikrimizcha, SCOR modellarining asosiy maqsadi xomashyo zaxirasini shakllantirish, ishlab chiqarishni tashkil etishdan oldin ta'minotchi va yetkazib beruvchilarni belgilab olish hisoblanadi. SCOR modelini qo'llash korxonalarda xomashyo zaxiralarini yanada oqilona rejalashtirish va ta'minot uzilishlari xavfini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda yog'-moy korxonalarining ta'minot zanjirini takomillashtirishda SCOR modelidan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ta'minot zanjirining rejalashtirish, ta'minlash, ishlab chiqarish, yetkazib berish va qaytarish bosqichlari SCOR modeli asosida ko'rib chiqildi. Shuningdek, yog'-moy korxonalarining 2020–2024-yillardagi xomashyoni qayta ishlash hajmi, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi hamda mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida SCOR modelini joriy etishning xarajatlarni kamaytirish, zaxiralarni optimallashtirish, logistika jarayonlarini yaxshilash va korxonalar samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berildi.

1 Krylatkov P.P., Prilutskaya M.A. Upravlenie tsep'yu postavok. Uchebnoe posobie. Yekaterinburg, 2018.

2 Trifuntov A.N., Margunova V.I. Upravlenie tsepyami postavok: ucheb. posobie Minsk: Vysshaya shkola, 2018

3 May M. Supply Chain Management in Agriculture – Including Economics Aspects Like Responsibility and Transparency. Article. Spain, 2002


4 A.T. Raximov, Sh.Sh. Xodjaev. "Экономика и инновационные технологии" №3, 31 bet, 2020.

5 N.M. Abdullaev "Agrosanoat kompleksida zaxiralarni boshqarishda zamonaviy metodlar" nomli maqola. Иқтисодиёт ва статистика//3-son, 46-bet, 2022



TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatda yog'-moy tarmog'ini rivojlantirish, aholi ehtiyojini yanada to'laroq qondirish maqsadida ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va tayyor mahsulotlar assortimentini ko'paytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati ortmoqda.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi yog'-moy korxonalari tomonidan qayta ishlangan xomashyo hajmi (tonna)⁶

Shu bilan birga, haqiqiy holat shuni ko'rsatadiki, yog'-moy tarmog'ini boshqarishning yagona tizimi yo'lga qo'yilmaganligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini nazorat qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish va tarmoq rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Yuqorida berilgan 1-rasmda O'zbekiston Respublikasi yog'-moy korxonalari tomonidan qayta ishlangan xomashyo hajmi ming tonnada berilgan bo'lib, unda 2024-yilda respublikada qayta ishlangan xomashyo hajmi 2023-yilga nisbatan 52 000 tonnaga ortganini hamda 2020-yilga nisbatan 55 foizga yoki 252 tonnaga ortganini ko'rishimiz mumkin. Moyli o'simliklarni qayta ishlash hajmining ortishiga respublikada ushbu o'simliklarni yetishtirish hajmining o'sishi ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Quyida berilgan 1-rasmda 2020–2024-yillarda respublikaning yog'-moy korxonalari tomonidan ishlab chiqarish quvvatidan foydalanilganlik to'g'risida ma'lumot berilgan.

Yog'-moy korxonalarining ta'minot zanjirini takomillashtirishda SCOR modelining har bir bosqichini, xususan, rejalashtirish, ta'minlash, ishlab chiqarish, yetkazib berish va qaytarish jarayonlarini tizimli tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida yog'-moy korxonalari o'zlarining ta'minot zanjirini SCOR (Supply Chain Operations Reference) modelidan foydalanib takomillashtirishlari natijasida quyida berilgan 1-jadvaldagi samaradorlikka erishishlari mumkin.

1-jadval
SCOR modelini joriy etish orqali erishilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy samaradorlik⁷

Qo'llanilish sohasi	Samaradorlik ko'rsatkichi
Inventarizatsiyani optimallashtirishni	inventarizatsiya darajasini 15% ga oshirish
Ta'minot zanjirining har bir bosqichini (rejalashtirish, ishlab chiqarish, tarqatish va xizmat ko'rsatish) samarali ishlashi	ta'minot zanjirining umumiy samaradorligini 10-20% ga yaxshilash
Ta'minot zanjiridagi jarayonlarning optimallashtirilishi, logistik xarajatlarni kamaytirish va xaridlarni samarali boshqarish	kompaniya xizmat ko'rsatish xarajatlarini 5-15% ga qisqartirish
Ishlab chiqarish jarayonidagi xatoliklarni kamaytirish, to'g'ri ma'lumotlar bilan ishlash va mahsulot sifatini oshirish	buyurtma xatoliklarini 20-30% ga kamaytirish
Ishlab chiqarish va yetkazib berish jarayonlarini optimallashtirish	kompaniyaning o'rtacha tashish muddatini 10-25% ga qisqartirish


1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, SCOR modelini joriy etish yog'-moy korxonalarida inventarizatsiyani optimallashtirish, ta'minot zanjirining umumiy samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatish xarajatlarini

⁶ Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda soha ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.

⁷ Tadqiqot natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan




qisqartirish, buyurtma xatoliklarini kamaytirish hamda o'rtacha tashish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkichlarning yaxshilanishi korxonalarining umumiy samaradorligini oshirish va iqtisodiy natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2020–2024-yillarda moyli ekinlarni qayta ishlash quvvati va yetishtirilgan xomashyo hajmi solishtirmasi, ming tonna⁸

Ushbu rasmdan 2024-yilda respublikaning ishlab chiqarish quvvati 900 ming tonnani tashkil etganini hamda ishlab chiqarish quvvati 75 foizga, ya'ni 450 ming tonna xomashyo qayta ishlanganini ko'rishimiz mumkin. 2024-yilda 2020-yilga nisbatan ishlab chiqarish quvvati 300 ming tonnaga va 250 ming tonna xomashyo qayta ishlanganini hamda ishlab chiqarish quvvati 77,8 foizga ortganini ko'rishimiz mumkin.

Respublika aholisining soni oshib borayotganligi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini oshirib bormoqda. Xususan, 2024-yilda respublikada jami 370 ming tonna kungaboqar yog'i, paxta yog'i va soya yog'i ishlab chiqarildi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, so'nggi yillarda respublikada kungaboqar yog'i iste'moli oshib borayotganligi sababli ushbu o'simlik moyini ishlab chiqarish hajmi ham keskin ravishda oshib bormoqda. Quyida berilgan 3-rasmdan O'zbekiston Respublikasida 2020–2024-yillarda yetishtirilgan yog'-moy xomashyosini tahlil qilib chiqishimiz mumkin. 2024-yilda kungaboqar yog'i ming tonna, soya yog'i 125 ming tonna va paxta yog'i 3,75 ming tonna ishlab chiqarilganini ko'rishimiz mumkin. 2020-yilga nisbatan kungaboqar yog'ini ishlab chiqarish 55 ming tonnaga, ya'ni 320 foizga, soya yog'ini ishlab chiqarish 27 ming tonnaga, ya'ni 438 foizga, paxta yog'ini ishlab chiqarish 117 ming tonnaga, ya'ni 146 foizga oshganini ko'rishimiz mumkin.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2020–2024-yillarda paxta yog'i, kungaboqar yog'i va soya yog'ini ishlab chiqarish hajmi, ming tonna⁹


SCOR (Supply Chain Operations Reference) modeli 1996-yilda Supply Chain Council (SCC) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ta'minot zanjirining samaradorligini boshqarish va optimallashtirish uchun yagona va standartlashtirilgan metodologiya yaratish maqsadida tashkil etilgan. SCC tashkiloti SCOR modelining

⁸ Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda soha ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.

⁹ Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda soha ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.



yaratilishida bir nechta yirik sanoat korxonalari mutaxassislari, konsalting kompaniyalari va texnologik mutaxassislar ishtirok etgan. Bu model kompaniyalarga ta'minot zanjirini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va ta'minot zanjirining turli bosqichlarini yaxshilash imkoniyatini taqdim etdi.



4-rasm. SCOR (Supply Chain Operations Reference) modelining asosiy jarayonlari¹⁰

SCOR modelining muvaffaqiyatli qo'llanilishi kompaniyalarga o'zlarining ta'minot zanjirini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va bozor talablariga tezda moslashish imkonini beradi.

Rejalashtirish (Plan). Bu jarayon ta'minot zanjirining barcha faoliyatlarini umumiy rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Rejalashtirish jarayoni talab va resurslar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatlari va ta'minot zanjiri tarkibidagi barcha bo'limlar o'rtasida samarali koordinatsiyani yaratish uchun zarur. Asosiy maqsad — ta'minot zanjirining barcha jarayonlari uchun umumiy strategik va operatsion rejalashtirishni amalga oshirish. Bu bosqichda talabni prognoz qilish va mijozlarning ehtiyojlarini aniqlash, resurslar — xomashyo, odamlar, quvvatlar va boshqalarni samarali taqsimlash, ishlab chiqarish va ta'minot zanjirining turli bosqichlarida yukni balanslash kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.

Manba (Source). Ushbu jarayon xomashyolarni yetkazib beruvchilardan olish va ta'minot zanjiriga kiritishni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni o'rnatish, materiallarni o'z vaqtida va sifatli olish, ta'minot zanjiridagi uzilishlarning oldini olish uchun barcha zaruriy choralar ko'riladi.

Ishlab chiqarish (Make). Ushbu jarayon mahsulotni ishlab chiqarish va yig'ish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, sifatni ta'minlash va xarajatlarni kamaytirish zarur. Ishlab chiqarish jarayoni ishlab chiqarish va yig'ish jarayonlarini rejalashtirish va nazorat qilish, ishlab chiqarish jarayonida samaradorlikni oshirish, mahsulot sifatini nazorat qilish va ta'minlash hamda ishlab chiqarish quvvatlarini va vaqtni optimal tarzda boshqarish vazifalarini o'z ichiga oladi.

Yetkazib berish (Deliver). Yetkazib berish jarayoni mahsulotni yakuniy mijozlarga yetkazib berish va ularga xizmat ko'rsatishni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda mahsulotni yetkazib berishning samarali va o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun barcha logistik faoliyatlarni boshqarish zarur. Yetkazib berish jarayoni mahsulotni mijozlarga yetkazib berishning barcha bosqichlarini rejalashtirish, yetkazib berish uchun transport va tarqatish tarmoqlarini boshqarish, mahsulotni va xizmatlarni yetkazib berish jarayonida sifatni ta'minlash, mijozlarga vaqtida yetkazib berish va ularning ehtiyojlariga moslashish kabi vazifalarni bajaradi.

Qaytarish (Return). Qaytarish jarayoni mahsulotlarni qaytarish, ularni ta'mirlash yoki to'xtatish jarayonlarini boshqarishni o'z ichiga oladi. Bu jarayon sifat nazorati, mahsulotni qaytarish jarayonlarini boshqarish va muammolarni tezda hal qilishni ta'minlash uchun zarurdir. Qaytarish jarayonining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Mijozlarning mahsulotni qaytarish yoki almashtirish bo'yicha arizalarini qayta ishlash.
- Mahsulotlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish va sifat nazoratini amalga oshirish.

¹⁰ Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda soha ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.



SCOR (Supply Chain Operations Reference) modelini qo'llashda kompaniyalar quyidagi afzalliklar va ustunliklarga erishadilar:

➤ **Standartlashtirish va integratsiya:** SCOR modeli kompaniyalarga jarayonlarni yagona tizimda boshqarish imkonini beradi, bu esa bo'limlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yaxshilaydi, kommunikatsiya samaradorligini oshiradi va xatoliklarni kamaytiradi.

➤ **Samaradorlikni oshirish:** model ta'minot zanjirining barcha bosqichlarini tezlashtirib, kompaniyaning bozor ulushini oshiradi. Inventarizatsiyani optimallashtirish va resurslarni samarali boshqarish orqali ortiqcha sarf-xarajatlar kamayadi.

➤ **Xarajatlarni kamaytirish:** SCOR modeli xarajatlarni doimiy monitoring qilish va optimallashtirish orqali transport va logistika xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi, bu esa kompaniyaning rentabelligini oshiradi.

➤ **Mijozlarning qoniqishini oshirish:** bozor talablarini kuzatib, kompaniya o'z xizmatlarini mijozlar ehtiyojlariga moslashtiradi. Sifat nazorati yordamida mahsulot va xizmatlar doimiy ravishda yaxshilanadi.

➤ **Ko'rsatkichlar va monitoring:** SCOR modeli samaradorlikni o'lchash uchun KPIlarni taqdim etadi, bu kompaniyaga o'z faoliyatini baholash va tahlil qilish imkonini beradi. Monitoring tizimlari orqali kompaniya jarayonlardagi xatoliklarni tezda aniqlab, ularni bartaraf etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

SCOR modeli yog'-moy korxonalariga ta'minot zanjirining barcha bosqichlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish, mijozlarni qoniqtirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Bu modelni qo'llash yog'-moy korxonalariga uchun raqobatbardoshlik ustunliklarini yaratish, biznes jarayonlarini tizimli ravishda boshqarish, resurslardan samarali foydalanish, jarayonlarni optimallashtirish va global miqyosda barqaror o'sishni ta'minlashda katta yordam beradi. Shu bilan birga, jarayonlarni inventarizatsiyalash, xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish, buyurtmalarni to'liq va o'z vaqtida bajarish, buyurtmalarni qayta ishlash, logistika xarajatlarini kamaytirish va tashish muddatlarini qisqartirishga yordam beradi. Bu ko'rsatkichlarning yaxshilanishi kompaniyaning umumiy samaradorligini oshirishga va iqtisodiy natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Крылатков П. П., Прилуцкая М. А. Управление цепью поставок (SCM): учебное пособие. — Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2018. — 140 с.
2. Трифунтов А. И., Маргунова В. И. Управление цепями поставок: учебное пособие. — Минск: Вышэйшая школа, 2018. — 221 с.
3. Mau M. Supply Chain Management in Agriculture — Including Economics Aspects Like Responsibility and Transparency. Paper prepared for the Xth EAAE Congress "Exploring Diversity in the European Agri-Food System". — Zaragoza, Spain, 28–31 August 2002.
4. Abdullayev N. M. Agrosanoat kompleksida zaxiralarni boshqarishda zamonaviy metodlar. // Iqtisodiyot va statistika. — 2022. — № 3. — B. 46.
5. Association for Supply Chain Management. SCOR Digital Standard. — Chicago: ASCM, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4118-son "Yog'-moy tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4163941>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957>
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>